

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'lifni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lif olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari .....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lif jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lif jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lif olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lif jarayonida mobil ta'larning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'rada zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**CHET TILI O'QITISHNING MODELLARI XAQIDA****О МОДЕЛЯХ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ****ON THE MODELS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING****Yusupova Dilnoza O'ktamali qizi****<sup>1</sup>Yusupova Dilnoza O'ktamali qizi**

– Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotasiya**

*Quyidagi maqola chet tilini o'rgatish texnologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish haqida bo'lib, unda bugungi kunga qadar yaratilgan va til o'rganuvchilarning chet til kompetensiyalarini takomillashtirishga mo'ljallangan turli modellar haqida fikr yuritiladi. Ta'kidlash joizki, nemis tilini o'rgatishning bu yangi yaratilgan modeli kelgusida umumta'lum mabtablaridagi nemis tili darslarining samaradorligida muhim ahamiyatga ega.*

**Аннотация**

*В статье речь идет о развитии и совершенствовании технологии обучения иностранному языку, в ней рассматриваются различные модели, созданные на сегодняшний день и призванные повышать иноязычные компетенции изучающих языки.*

**Abstract**

*The article is devoted to the development and improvement of the foreign language teaching technology, it discusses the various models that have been created to date and are designed to improve the foreign language competences of language learners.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya,didaktika, optimallashtirish,kompetensiya, muloqot kompetensiyasi, og'zaki nutq kompetensiyasi, model, modellasshtirish.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, дидактика, оптимизация, компетентность, речевая компетентность, модель коммуникативной компетентности, моделирование.

**Key words:** pedagogical technology, didactics, optimization, competence, speech competence, communication competence model, modeling.

**KIRISH**

Ma'lumki, biror bir pedagogik texnologiyani ta'lum jarayoniga tatbiq qilishda, eng avvalo uning ilmiy amaliy mexanizmini ishlab chiqishni talab etadi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dunyo olimlari tomonidan turlicha ta'riflanadi. Bundan shuni tushinish mumkinki, pedagogik texnologiya tushunchasining ko'p qirrali ekanligi, pedagogik texnologiya tushunchasiga nafaqat pedagogik hamda psixologik, balki didaktik, ijtimoiy va boshqa nuktai nazarlardan ham yondashish mumkinligini anglatadi. J.Yuldashevning fikricha, «Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lum shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya –ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat».

Umumta'lum mabtablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish texnologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish,o'quvchilarda o'zgalar madaniyati, urf-odatlari va bu orqali o'zlikni anglash va milliy qadriyatlar hissini shakllantirish asosida samaradorlikka erishish modelini ishlab chiqish zamonaviy chet tili darslari va til o'rganish jarayoni uchun katta ahamiyatga egadir.Zamonaviy chet til darslarida yuz berayotgan global o'zgarishlar –o'zgalar madaniyati, urf-odatlari va bu orqali o'zlikni anglash va milliy qadriyatlar hissini shakllantirishning fanga kirib kelishi, maktab o'quvchilarining Vatanga muhabbat, o'z milliy qadriyatlarini chuqur anglash borasida yangi o'quv majmularini yaratish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilinishi – o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Shuningdek, chet til ta'lими zamonaviy metodlar asosida modellashtirish har bir chet til o'qituvchisining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

**ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR**

Til o'rganish jarayoni nafaqat lingvitik kompetensiyani rivojlantirish, balki sosiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni ham rivojlantirish jarayonidir. Chunki lingvitik kompetensiya orqali o'quvchilarining leksik, grammatik va fonetik kompetensiyalari rivojlansa, sosiolingvistik kompetensiya

## PEDAGOGIKA

orqali ularning butun til jarayoniga oid bilimlari ya'ni, madaniyat, urf-odat, har ikki mamlakatning turmush tarzları, milliy va tarixiy qadriyatlarini o'zaro qiyoslash kompetensiyalari rivojlanadi. Pragmatik kompetensiyada esa lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni amalda qo'llash jarayonidir. Taniqli metodist olim J.Jalolov fikricha, «kompetensiya tilni o'rganishga harakat qilmoq, til o'rganishga qobiliyatli bo'lmoqligidir». G.Asilovaning fikriga ko'ra esa «kompetensiya ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishidir». Ushbu ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, sosiolingvistik kompetensiya tarkibiga kirgan urf-odatlari chet til o'rganish jarayonida umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida o'zgalar madaniyati, urf-odatlari va bu orqali o'zlikni anglash va milliy qadriyatlar xissini shakllantirish uchun urf-odatlarni o'rgatish modelini ishlab chiqish zarur.

Pedagogik jarayonda «belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'llimning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish, asosan, tizimli yondashuv uslubi, maqsadlarni tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'llim modelini yaratish – zamonaviy ta'llim texnologiyasining asosiy talablaridan birdir», deb ta'kidlaydi H.Omonov.

Umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish va o'rganishni joriy etilishi bilan til o'rgatish va o'rganish jarayonini takomillashtirish va talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, jarayon intensivligiga hamda sosiolingvistik kompetentlikni shakllantirish asosida til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish uchun nemis tilini o'qitish jarayonida urf-odatlarni o'rgatish modelini takomillashtirishga zaruriyat paydo bo'ldi. Ma'lumki, o'quv jarayoniga ma'lum bir texnologiyani joriy etish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Har bir texnologiyani joriy etishda ma'lum shart-sharoitlar talab etiladi.

Umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish va o'rganish modeli haqida gapirishdan avval, model tushunchasiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Model lotincha modulus so'zidan olingan bo'lib, o'chov, me'yor degan ma'noni bildiradi. U biror obektning obrazni yoki namunasidir. Model sun'iy ravishda yaratiladi. U turli sxemalar, fizik tuzilmalar, belgili shakllar va formulalar ko'rinishida yaratilgan namuna bo'lib, o'rganilayotgan obektga o'xshab, o'zining tuzilmasiga, xossalariiga, tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarga ega.

Ushbu maqolada bayon etilgan umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish va urf-odatni ifodalovchi o'quv materiallariga qo'yiladigan metodik mezonlar, sosiolingvistik kompetentlikni ifoda etuvchi o'quv faoliyat mazmunini modellashtirish, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish orqali til o'rgatish jarayonida samaradorlikka erishishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni tizimli rejalashtirish imkonini beradi.

Til o'rgatish jarayonini yaxlit tizim sifatida o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib, uni bartaraf etishda, jarayonning modelini yaratish, ya'ni modellashtirish muhim o'r'in tutadi. Bizning fikrimizcha, modellashtirish ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi yaxlit siklik jarayonni aks ettirish uchun xizmat qiladi. O'qituvchidan sikl mohiyatini diqqat bilan o'rganib chiqish talab etiladi. Tavsiya etilayotgan yakuniy model kuzatish jarayonida paydo bo'lgan fikr va mulohazalar bilan boyitiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, modellashtirish tanlangan jarayon haqidagi bilimlarni siklning turli bosqichlarida yakuniy tavsiya etiladigan model ko'rinishida tasavvur qilishga imkon beradi.

Umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish modelini yaratishdan avval, modelning maqsadini belgilab olish, uning qo'llanilish sohalarini chegaralash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon modellashtirishning boshlanishi hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish modelini yaratishdan kutilayotgan natijalar modelning maqsadidan kelib chiqadi. Modellashtirishda ta'llim mazmunini ham, o'quv faoliyatini ham modellashtirish lozim. Har bir pedagogik tadqiqot ishida modelning amaliy ahamiyati uni shakllantirish bosqichlari, tamoyillari to'g'ri hisobga olinganligi yordamida aniqlanadi. Modelning ko'rgazmalilik, tushunarilik, obektivlik kabi tamoyillari uning imkoniyatlari va turlari bilan birga pedagogik tadqiqotning vazifalarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

## NATIJA VA MUNOZARALAR

Pedagogik modellashtirish degani bu o'quv jarayoniga olib kirilishi rejalashtirilayotgan modelning shakllantirilishidir. Shunga ko'ra har qanday pedagogik modellashtirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari tanlanadi, so'ngra modellashtirish masalasiga o'tiladi. Modelning parametrлari va tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Tadqiqotda belgilab olingan vazifalarni yechishda modelning yaroqliligi o'rganiladi. Tavsiya

etilayotgan model tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish shart-sharoitlari aniqlanadi.

Umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatish modeli deganda, nemis tilini o'rgatish jarayonida sosiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi, motivatsion o'quv jarayonini tashkil etish uchun zaruriy bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiluvchi didaktik imkoniyatlarni o'zida aks ettiruvchi modelni tushunamiz. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida, pedagogik modellashtirishning quyidagi komponentlarini aniqlashga tuyassar bo'lingan: aniq yo'naltirilgan maqsad, o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar, dars jarayoniga urf-odatga doir o'quv materiallarini olib kirish, kutilayotgan natija va mакtab o'quvchilarining urf-odatlarni o'rganish jarayonini baholashga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish. Taklif etilgan urf-odatlarni o'rgatish modeli, oldindan belgilangan maqsad va unga erishish usullari, vositalariga ega.

Umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatishda samaradorlikka erishish uchun tavsija etilgan interfaol usullardan foydalanish modeli ta'limga maqsadining aniq yo'naltirilganligi, o'quv faoliyatini mazmunini tanlash, urf-odatlarni o'rgatish jarayonini tashkil etish va natjalardan iborat bo'lib, o'z ichiga o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi qismalarni qamrab olgan. Uning tarkibidagi har bir qism muhim ahamiyatiga ega. Ular bir-biridan ajragan holda belgilangan maqsadga erishishi mumkin emas. Har bir tarkibiy qism o'zining tavsifiga ega bo'lib, ular modelning umumiyligini xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatishning diagnostik ko'rsatkichlari jarayonga qo'yiladigan talablardan tashkil topgan.

Umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatishda samaradorlikka erishish uchun tavsija etilgan interfaol usullardan foydalanish modeli tuzilishi sxemasi asosida nemis tilini o'rgatish jarayonida urf-odatlardan foydalanishni o'zichiga qamrab oladi. Ma'lumki, bugungi kunda til o'rganuvchilarining chet til kompetensiyalarini takomillashtirishga mo'ljallangan turli modellar taklif etilgan. Xususan, «Chet tilida og'zaki nutqni o'sishiga ta'sir etuvchi omillar – Robert Gardner modeli», «Chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllanish jarayoni – Levelt modeli» kabi modellar va bundan tashqari o'zbek olimalari O.Xasanova tomonidan nemis tilini o'rgatishda xotira texnikalaridan foydalanish orqali samaradorlikka erishish modeli, Z.Paziljanova tomonidan talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish orqali ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli, N.Merganova tomonidan nemis tilida talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish modeli kabilar til o'rganish jarayonining o'ziga xos jihatlarini qamrab olishga harakat qilgan. Lekin, bu modellarda urf-odatlarni o'rgatishda samaradorlikka erishish uchun interfaol usullardan foydalanish modeli haqida ma'lumot berilmagan.

Nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatishda samaradorlikka erishish uchun interfaol usullardan foydalanish modeli dunyo va o'zbek tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilmagan. Umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarining nafaqat nemis tilidagi bilimlarini oshirishga, balki ularning sosiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishga, til o'rganish jarayonini dinamikasini oshishiga erishiladi. Umumta'lismaktablari o'quvchilarining ikki davlat urf-odatlari to'g'risidagi bilimlari boyitildi, ularda o'zgalar madaniyatiga hurmat va shuningdek tolerantlik ko'nikmalari shakllantiriladi.

### XULOSA

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, mavzuga oid ilmiy manbalarning tahlili, modellashtirish jarayonidagi siklik kuzatuvalar umumta'lismaktablarining nemis tili darslarida urf-odatlarni qo'llash texnologiyalari orqali samaradorlikka erishish modelini yaratishga imkon beradi. Shuni xam ta'kidlash joizki, urf odatlarni o'rgatishning bu yangi yaratilgan modeli kelgusida umumta'lismaktablaridagi nemis tili darslarining samaradorligida muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'naliishlari talabalarining davlattilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rusguruhrarda): Avtoref. diss. ...ped.fan. dokt.-T., 2017.-13 b.
- Omonov H., Xo'jayev N., Madrayeva S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.:Iqtisod-moliya.2009. – 57
- Xasanova O.Q. Nemis tilini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanish texnologiyasi. Ped.fan.b.fals.dok. ...diss.-Farg'ona, 2021.
- Gardner R. A student's contributions to secondlanguage learning. Part II. Affective variables. // Language Teaching. № 26. – p: 1-11.

**PEDAGOGIKA**

5. Dieter W. Sprachproduktion als Planung: Ein Beitrag zur Psychologie und Didaktik des Sprechens. Akten der Gesamtschweizerischen Tagung für Deutschlehrerinnen und Deutschlehrer. Tagungsband. –Bern: 2006.
6. Paziljanova Z.S. Zamonaviy nemis tilidarsliklari vositasidatalabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiya sini rivojlantirish ntexnologiyasi. Ped.fan.b.fals.dok...diss.-Qo'qon,2022.
7. New Approaches to Lessonm Plan M. Qahharova .D.Yusupova.Europaen Journal of humanities and Educational Advancements.3.40-24.2022
- 8.Izlojeniye nemetskix prazdnikov I traditsiy v uchebnikax. D.Yusupova Obshesto I innovatsii 2(4/S), 88-92
- 9.The usage of ethnographic terms in literary speech.Yusupova D.Uktamali qizi .Academicia:An international multidisciplinary research journal 11 (2),855-857.
10. Technology for the development of teaching traditions in germanlesson.Yusupova D. International Confernece on Advance research in Humanities, Sciences and Education.Switzerland conference. February25th 2023.
- 11.The role of motivation in teaching a foreign language.D.Yusupova nNovateur publications Journal NX – Multidisciplinary PeerReviewed Journal. Scienceweb academic papers collection, Volume8,ISSUE 12, Dec.-2022.
12. Learning Traditions through the use of "Station".D. YusupovaNovateur publications Journal NX – Multidisciplinary Peer ReviewedJournal. Scienceweb academic papers collection, Volume8, ISSUE 11,Nov.-2022.
- 13.The Presentation of german holidays and traditions in textbooks.GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL(GIIRJ) ISSN (E) 2347-6915. VOL. 10, Issue 11. Nov. 2022
14. Ghulomovna, K. Z. (2022). REGARDING THE CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1172-1175.
15. Xatamova, Z. (2020). Project method in teaching English. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7, 123-127.
16. Rajapova, M. (2021). PRINCIPLES OF COGNITIVE METAPHOR AND ALLEGORY IN DISCOURSE. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Makhmudovna, I. N. (2022). LINGUISTIC FEATURES OF TOPOONYMS REPRESENTED BY COMPOUND NOUNS IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(09), 387-390.